

# Bakalavriatura

60812500 - “Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish”	60812500 - “Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish” - bakalavriat ta’lim yo’nalishida tahsil olayotgan talabalar gidrotexnika inshootlarini va nasos stansiyalarini loyihalash, ulardan foydalanish usullari, nasoslardagi ish jarayonlari gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalarini qurish, ta’irlash, rekonstruksiya qilish jarayonlarini o’zlashtirish, nasos va ular tizimlarida kechadigan fizik jarayonlarning matematik modellarini yaratish, gidrotexnika inshootlariga va nasos agregatlariga texnik xizmat ko’rsatish, ta’irlash strategiyasini belgilash va qo’llash bo’yicha tayanch bilimlar oladilar.
60730900 - “Gidrotexnika qurilishi” (turlari bo’yicha)	60730900 - “Gidrotexnika qurilishi” (turlari bo’yicha) - bakalavriat ta’lim yunalishi talabalari gidrotexnika inshootlari qurilishi va rekonstruksiya loyihasini tuzish, gidrotexnika inshootlarining optimal variantlarini tanlash va joriy qilish, gidrotexnika qurilishi samaradorligini aniqlash bo’yicha tajriba tadqiqotlarini o’tkazish, tajriba tadqiqotlariga ishlov berish va tahlil qilish bilan bog’liq bo’lgan kompleks ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, gidrotexnika qurilishida grunt, beton, temirbeton va montaj ishlarini bajarish texnologiyalari, material-texnik resurslardan samarali foydalanish uslublari va ishlarni tashkil qilish, injenerlik yechimni texnik-iqtisodiy asoslash, tahlil qilishni, loyiha-qidiruv va qurilish ishlarining texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlarni aniqlash bo’yicha tayanch bilimlar oladilar.
60710800 - “Gidroenergetika”	60710800 - “Gidroenergetika” (60812700-“Irrigatsiya tizimlarida gidroenergetika obyektlari”) bakalavriat ta’lim yo’nalishida tahsil olayotgan talabalar, Gidroelektrostansiyalar, Gidroakumuliyasion elektrostansiyalar va noan’anaviy-qayta tiklanuvchi energiya manba’lari asosidagi qurilmalarini loyihalash usullarini, gidroenergetik ob’ektlarini qurish, ulardan foydalanish, ta’irlash va rekonstruksiya qilish jarayonlari, gidravlik mashinalarida kechadigan ishchi jarayonlar, gidroenergetik qurilmalarining muhandislik hisoblari, algoritmlari va matematik ta’minotini ishlab chiqish, gidroenergetik qurilmalariga texnik xizmat ko’rsatish, ta’irlash strategiyasini belgilash, texnik ekspluatatsiya prinsiplarini tuzish va loyihalash bo’yicha tayanch bilimlar oladilar.
60531000 - “Mexanika va matematik modellashtirish”	60531000 - “Mexanika va matematik modellashtirish”-bakalavriat ta’lim yunalishida tahsil olayotgan talabalar qurilish, suv xo’jaligi va mashinasozlik sohalaridagi jarayonlarni matematik modellashtirish, zamonaviy EHMlarda dasturlash ishlarini bajarish usullarini mukammal o’rganadilar. Shuningdek 3D shakldagi modellarini yaratish, ularni turli ish sharoitlarida ishlashlarini mexanik qoidalar asosida tahlil qilish, optimal shakl va o’lchamlarini aniqlash, mustaxkamlik va ishonchliliklarini baholash kabi faoliyatlarni tula amalga oshirish bo’yicha tayanch bilimlar oladilar.